

11-sinf. Ona tili. 1-BSB. (50 ball)

MATNNI DAVOM ETTIRISH

Qamrab olingan mavzular (taqvim mavzu reja asosida)

1. Madaniy nutq va uni shakllantiruvchi vositalar.
2. Nutqning to'g'riligi.
3. Yozma nutqning to'g'riligi va me'yor.

Bir baliqchi bor edi. Kunlarning birida u ovlagan balig'ining ichidan qimmatbaho marvarid topib oldi. Xursand bo'lgan baliqchi marvaridni zargarga olib bordi. Zargar marvaridni ko'rib:

– Bu bebaho-ku! Men do'konimni, uyimni sotsam ham marvaridingni sotib olishga pulim yetmaydi. Sen buni podshohimizga olib bor, meningcha, u sotib olishi mumkin, – deb maslahat berdi.

Baliqchi saroyga jo'nadi. Ichkariga kirib, podshohga bo'lgan voqeani so'zlab berdi va qo'lidagi marvaridni uzatdi. Podshoh qimmatbaho toshni olib, baliqchiga dedi:

– Men bu marvaridni anchadan buyon izlayotgan edim. Seni mukofotlash uchun o'zimning maxsus xazinamga kirishingga ruxsat beraman. U yerda olti soat qolib, istaganingcha narsa olishing mumkin.

Baliqchi maxsus xazinaga kirdi-yu, hayratdan qotib qoldi. Xazinaning ichi juda katta, uch qismdan iborat ekan: birinchi xona qimmatbaho toshlar, oltin-kumushlar bilan to'la; ikkinchi xonada turfa xil taomlar va ichimliklar tayyorlab qo'yilgan; uchinchi – yotib dam olish uchun hozirlangan xona. Bularni ko'rgan baliqchi o'zicha: “Shuncha oltinni qanday olib ketaman? Avval yaxshilab ovqatlanib olsam, kuchga to'laman, shunda ko'proq oltin olib ketishimga imkon tug'iladi”, – deb o'yladi va taomlar hozirlangan xonaga kirib, berilgan vaqtning ikki soatini yeb-ichishga sarfladi. Keyin esa oltin-u javohirlar to'la xonaga borayotganda parqu ko'rpa-yostiqli to'shaklar solingan xonaga ko'zi tushdi. Yana o'zicha: “Ovqatlanib qornimni to'ydirib oldim. Kel, endi biroz mizg'ib olsam, yanada ko'proq kuch to'playman va mo'l boylik olib ketaman. Shunday ajoyib to'shakda uxlamay ketaveramanmi?” – dedi o'z-o'ziga. Shunday qilib, u uxlash xonasiga kirdi...

Matnni quyidagi taxminiy mavzulardan birini tanlab davom ettiring:

Baliqchi aldangan edi, chunki ovqatlarga zahar qo'shib qo'yilgandi.

Baliqchi uxlab qoladi va belgilangan muddat tugaganini sezmay qoladi.

Baliqchi saroydagi barcha oltin-kumushlarni o'zi bilan olib ketadi.

Matnni davom ettirish bo'yicha talablar:

1. Matnni asosli, izchil hamda qiziqarli tarzda davom ettiradi, xulosalaydi.
2. Imlo qoidalarini va husnixat talablariga amal qiladi.
3. Matnda tinish belgilaridan to'g'ri foydalanadi.
4. So'zlardan o'rinli foydalanadi.

Baholash mezonlari (50 ball)	
1. Mazmun, izchillik, xulosa	20 ball
Davom ettirilgan matndagi fikrlar asosli, izchil ifodalangan, qiziqarli hamda mantiqiy xulosalangan bo'lsa –	20 – 18 ball
Davom ettirilgan matndagi fikrlar asosli, izchil, ammo xulosalash jarayonida biroz kamchilikka yo'l qo'yilgan bo'lsa –	17 – 11 ball
Davom ettirilgan matndagi fikrlar asosli, ammo ularda mavzudan chetga chiqish holati kuzatilgan bo'lsa –	10 – 5 ball
Davom ettirilgan matnda fikrlar asoslanmagan, izchillikka amal qilinmagan, fikr xulosalanmagan bo'lsa –	4 – 1 ball
2. Savodxonlik va husnixat talablarining bajarilganligi	10 ball
Matn imloviy xatolarsiz, husnixat talablariga amal qilgan holda yozilgan bo'lsa –	10 – 9 ball
Uch-to'rt o'rinda imloviy xatoliklarga yo'l qo'yilgan, ammo husnixat talablariga amal qilingan bo'lsa –	8 – 5 ball
Besh-olti o'rinda imloviy xatoliklarga yo'l qo'yilgan, husnixat talablariga amal qilinmagan bo'lsa –	4 – 1 ball
3. Tinish belgilaridan to'g'ri foydalana olishi	10 ball
Matnni davom ettirish jarayonida hech qanday ishoraviy xatoliklarga yo'l qo'yilmagan bo'lsa –	10 – 9 ball
Matnni davom ettirish jarayonida uch-to'rt o'rinda ishoraviy xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa –	8 – 5 ball
Matnni davom ettirish jarayonida besh va undan ko'p o'rinda ishoraviy xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa –	4 – 1 ball
4. So'zlardan o'rinli foydalanishi	10 ball
Matn yozish davomida so'zlarning ma'nolarini tushunib to'g'ri qo'llay olgan, so'z qo'llash bilan bog'liq xatoliklar kuzatilmagan bo'lsa –	10 – 9 ball
Matn yozish davomida so'zlardan ayrim o'rinlarda noo'rin foydalangan, shu sabab takroriylikka yo'l qo'ygan bo'lsa –	8 – 5 ball
Matn yozish davomida so'zlarning ma'nolarini tushunmay noo'rin qo'llagan, takroriylikka yo'l qo'ygan, natijada matn mazmuniga putur yetgan bo'lsa –	4 – 1 ball
Jami:	50 ball